Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari	864
Yusubboeva Dinora Qudrat qizi	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH MASALALARI

Yusubboeva Dinora Quдрat qizi

Urganch davlat universitetining

Iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha izlanuvchisi

yusubboevadinora@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, bozor mexanizmlari va iqtisodiy islohotlarning samaradorligi atroflicha tahlil qilingan. Muallif tomonidan milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, ilmiy maqolada sohaviy tahlillar, statistik ma'lumotlar va tajriba natijalari orqali iqtisodiy jarayonlarning ta'sir omillari yoritilgan. Xulosa va takliflar iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy siyosat, raqamli iqtisodiyot, investitsion muhit, innovatsiya, rivojlanish strategiyasi, samaradorlik, iqtisodiy islohotlar, tarmoq tahlili.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of modern trends in the economy, market mechanisms, and the effectiveness of economic reforms. The author explores issues related to the digital transformation of the national economy, improvement of the investment climate, and promotion of innovative development. The study includes sectoral analyses, statistical data, and empirical findings that reveal the influencing factors on economic processes. The conclusions and recommendations aim to support the improvement of economic policymaking.

Key words: economy, market economy, economic policy, digital economy, investment climate, innovation, development strategy, efficiency, economic reforms, sectoral analysis.

Аннотация: В данной научной статье всесторонне проанализированы современные тенденции в экономике, механизмы рыночных реформ и эффективность экономических преобразований. Автор исследует вопросы цифровой трансформации национальной экономики, улучшения инвестиционного климата и стимулирования инновационного развития. В статье рассмотрены отраслевые анализы, статистические данные и результаты исследований, освещающие факторы влияния на экономические процессы. Выводы и предложения направлены на совершенствование экономической политики.

Ключевые слова: экономика, рыночная экономика, экономическая политика, цифровая экономика, инвестиционный климат, инновации, стратегия развития, эффективность, экономические реформы, отраслевой анализ.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson kapitaliga bo'lgan talabni mutlaqo yangi darajaga olib chiqmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy iqtisodiyotda raqobatbardosh va innovatsion tafakkurga ega kadrlar tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini raqamli transformatsiya yo'lida rivojlantirish ustuvor masalaga aylanmoqda.

Inson kapitalini raqamli transformatsiyalash — bu inson resurslarini raqamli texnologiyalar yordamida sifat jihatdan o'zgartirish, ya'ni zamonaviy raqamli muhitga mos keladigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar bilan qayta jihozlash jarayonidir. Ya'ni, an'anaviy usulda ta'lim olgan ishchi kuchini raqamlashtirilgan jamiyatda ishlashi



uchun avtomatlashtirilgan tizimlar, sensor qurilmalar va raqamli boshqaruv panellarini bilishi. Uning malakasini raqamli transformatsiyalash – aynan mana shu ko'nikmalarni o'rgatish, o'qitish va ishga tayyorlashni anglatadi.

Mamlakatimizda bu sohada katta ishlar amalga oshirilib, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlangan¹ unga ko'ra mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitali va uni raqamli transformatsiyalashning ustuvor yo'nalishlar sifatida ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish kabi choralarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, sanoat korxonalarida joriy etilayotgan boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, «Buyumlar interneti», «sun'iy intellekt» kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027 yilga kelib, apparat qismini esa 2030 yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish rejalashtirilgan. Ishlab chiqarish korxonalarida additiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o'lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog'i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko'lamlarini oshirish. milliy startaplarni rivojlantirishni rag'batlantirish va axborot texnologiyalari sohasida yangi ish boshlayotgan korxonalar va kichik korxonalarga, jumladan venchur moliyalashtirish orqali ko'maklashish, loyiha boshqaruviga o'qitishni joriy etish, shuningdek, startap-loyihalarini qo'llab-quvvatlovchi inkubatsiya va akseleratsiya markazlari faoliyatini tashkil etish orqali axborot texnologiyalari sohasidagi oliy ta'lim sifatini oshirish. Inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta'limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish.

Shuningdek, har tomonlama tahliliy va amaliy tadqiqotlar asosida raqamlashtirish jarayonlarining inson kapitali va iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini baholash va kelgusida mamlakatda inson kapitalini raqamli transformatsiyasini kengaytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish ustuvor etib belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatlar raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida adolatli va inklyuziv mehnat bozorini ta'minlash uchun qo'shimcha tadbirlar ko'rishi kerak. Bu siyosiy hujjatlar tahlili bunday jarayonda qanday yo'l tutish, qaysi jihatlarga e'tibor qaratish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining mamlakatlarni innovatsion va tizimli yondashuvlar orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga etishishda qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan Taraqqiyot Dasturining Osiyo va Tinch okeani mintaqasida faoliyat yurituvchi bo'limi xulosasiga qo'ra quyidagi jadvalni taqdim etgan²



1-jadval.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-6079-son Farmoni, //..lex.uz/docs/5030957..

² Regional Innovation Centre UNDP Asia-Pacific: Follow 7 min read Feb 24, 2020



Bu tashabbuslar to'plami amaliyoti deb nomlanadi, uning asosiy tuzilmalari orqali inson kapitalini transformatsiya qilish (ya'ni, chuqur o'zgartirish) haqida ketmoqda. Bu jarayon Helsinki va Cho'ra fondida o'rganilgan tajriba asosida bayon etilgan.

Oddiy «bir necha loyihalarni boshqarish»dan farqli ravishda, Tashabbuslar to'plami amaliyoti shunchaki loyihalarni nazorat qilish emas, balki yangi g'oyalar, modellar va imkoniyatlarni kashf etish va yangi tizimli yechimlarni yaratishga qaratilgan.

Tashabbuslar to'plami amaliyotining 4 asosiy qismdan iborat bo'lib, ular quyidagi tizimlarni o'zgartirishga yordam beradi:

1. Tashabbuslar to'plami va tanlovlar dizayni

Nima qilish mumkin? Nima bo'lishi mumkin?

Bu qismda, muammoli sohada qanday faoliyatlar kerakligi va ular qanday qilib yangi imkoniyatlarni ochishini o'ylash kerak:

Tashabbuslar to'plami muammoni tushunish va ma'no chiqarish tizimi bo'lib xizmat qilishi kerak.

Unda turli strategik variantlar (loyihalar, tajribalar, investitsiyalar) bo'lishi kerak.

Har bir faoliyat eksperiment sifatida dizayn qilinishi kerak, shunda u yangi resurslar yoki yechimlarni ko'rsatib bera oladi.

Ta'sir: Tashkilot ko'proq moslashuvchan va innovatsion bo'ladi, standart yechimlardan tashqariga chiqishni o'rganadi.

2. Portfel tarkibi (Tashabbuslar to'plamining tarkibi)

Biz nimani tanlamoqdamiz va nega? Bu erda Tashabbuslar to'plamidagi loyihalar qanchalik strategik ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi:

Ular tashkilotning umumiy maqsadi bilan bog'liqmi?

Turli faoliyatlar yetarlicha xilma-xilmi?

Har bir faoliyat qanday rol o'ynaydi: bilim beradimi, ta'sir qilyaptimi, yoki yangilik yaratyaptimi?

Ta'sir: Tashkilot o'z inson resurslarini strategik ravishda taqsimlaydi va transformatsiya uchun samarali Tashabbuslar to'plami balansi yaratadi.

3. Portfolio tajribasi (Tashabbuslar to'plami tajribasi)

Qanday qilib birgalikda ishlashni va qayta ko'rib chiqishni o'rganamiz?

Hamkorlik qanday tashkil etilgan?

Faoliyatlar iterativ ravishda (qayta-qayta) o'zgartirilishi mumkinmi?

Loyihalar orasida qanday ijtimoiy o'zaro ta'sirlar mavjud?

Ta'sir: Tashkilot o'rganuvchi tashkilotga aylanadi – ya'ni, tajribalardan xulosa chiqaradi, ularni o'zgartirib boradi.

4. Portfolio mantiqiyliigi va razvedkasi (Tashabbuslar to'plamining mosligi va "tahlillari")

Qanday qilib kelajakka qarab harakat qilamiz?

Tashabbuslar to'plami qanday qilib vaqt o'tishi bilan oqilona va ta'sirli bo'lib boraveradi?

Qanday bilimlar to'planmoqda? Qanday dalillar keltirish mumkin?

Qanday qilib bu bilimlar asosida transformatsiyaga sodiqlikni shakllantirish mumkin?

Ta'sir: Tashkilotdagi inson kapitali chuqur bilim to'playdi va strategik qarorlar qabul qilishda mustahkam asoslarga ega bo'ladi.

Tashabbuslar to'plami amaliyoti tizimni o'zgartirish uchun umumiy xulosa:

O'rganuvchi muhit yaratadi,

Hamkorlikni chuqurlashtiradi,

Maqsadga mos faoliyatlarni yo'naltiradi,

Va dalillar asosida harakat qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Tashabbuslar to'plami amaliyoti odatiy loyihalar boshqaruvidan farqli o'laroq, tashkilot yoki hududning muammoli sohasini chuqurroq o'rganish, unda yangi imkoniyatlarni kashf etish va innovatsion yechimlar yaratishga yo'naltirilgan yondashuvdir. U faqatgina alohida loyihalarni boshqarish emas, balki ularni strategik tarzda bir-biri bilan bog'lab, transformatsiya jarayoniga xizmat qiladigan faoliyatlar to'plami sifatida shakllantiriladi. Bu amaliyot muammolarni tushunish, ularga turli yo'llar bilan yondashish va o'rganish orqali ijtimoiy o'zgarishga zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati misolida Tashabbuslar to'plami amaliyotini qo'llash inson kapitalini rivojlantirish, yoshlar va ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Maqsadli loyihalar majmuasi turli darajadagi faoliyatlarni qamrab olib, joylardagi real ehtiyojlarga javob



berishga mo'ljallanadi. Inson kapitalini transformatsiya qilishda ta'lim, raqamlashtirish, bandlik va tadbirkorlikka qaratilgan tashabbuslar mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib moslashtiriladi va qayta ko'rib chiqib boriladi.

Natijada, tashabbuslar to'plami amaliyoti orqali tashkilotlar va hududiy rahbarlar aniq ma'lumot va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa strategik fikrlash, hamkorlik, va transformatsiyaga sodiqlikni kuchaytirib, hududda barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shunday yondashuv Xorazm viloyatida inson kapitalidan samarali foydalanish va yangi taraqqiyot yo'llarini ochishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchi olim, R. Ayupovning fikricha, raqamli iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omili raqamli shakldagi ma'lumotlar bo'lgan, fuqarolar va jamiyatning sifatli va ishonchli ma'lumotlar olishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot makoni shakllantirishga, O'zbekiston Respublikasi axborot infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va qo'llashga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar uchun yangi texnologik asoslar shakllantirishga xizmat qiladigan raqamli xo'jalik yuritish faoliyatini ifodalashi lozim. Shubhasiz, raqamli texnologiyalar kommunikatsiyalarga ketadigan vaqtni qisqartirish va barcha iqtisodiy jarayonlarni jadallashtiradi. Biroq, bu jadallik aniq hududda iqtisodiy yuksalish yoki tanazzulga olib kelishi mumkin – bu esa inson kapitali rivojlanish yo'nalishiga bevosita bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlari uchun an'anaviy ravishda ajratiladigan asosiy ishlab chiqarish omillari – er, mehnat va kapital iqtisodiyotni raqamli o'zgartirish davrida, tovarlar, xizmatlar va axborot qiymati shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytdagi tub o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Raqamli iqtisodiyotda davlatlarning asosiy aktivi inson kapitali bo'ladi. Ammo, umuman ham inson emas, balki asosiy aktiv yangi texnologiyalar sohasida chuqur bilimlarga ega, ularni hayotga tatbiq eta olishga qodir, eskisini takomillashtira oladigan konkret odamlar hisoblanadi. Hattoki, konkret odamlar ham emas, balki chuqur bilimga ega shaxslarni umumiy jamoaviy intellektga birlashtirish va faollashtirishga qodir bo'lgan odamlar guruhi davlatlarning asosiy aktivi bo'lib hisoblana boshlaydi. Shu munosabat bilan tan olish mumkinki, kelajak iqtisodiyotida asosiy ishlab chiqarish omillari bo'lib, inson va axborot kapitali hisoblana boshlaydi, bunda asosiy omil va harakat qiluvchi kuch inson kapitaliga tegishli bo'ladi deb hisoblaydi³. G. Abduraxmanovning fikricha raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish uchun ta'lim tizimini raqamlashtirish, soha va tarmoqlarni raqamlashtirish orqali yangi kasblar va malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlay oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, inson kapitalini rivojlantirishning huquqiy va moddiy asoslarini shakllantirish, hamda bu sohaning kelgusidagi rivoji uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishni tavsiya qilgan⁴.

Raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyat qozonish uchun mehnat bozoridagi kadrlar raqamli ko'nikmalar, axborot texnologiyalari va blokcheyn asoslarini bilishi shart. Shu boisdan, ta'lim tizimi zamonaviy raqamli yo'nalishlar bilan qayta formatlashishi kerak. Akademik S. Gulyamovning fikricha, mehnat bozorida yangi raqamli kasblar (data- sayntist, blokcheyn mutaxassisi, IT-ijrochi va h.k.) paydo bo'lmoqda. Eski mutaxassisliklar esa yoki qoloqlashib qolib ketadi, yoki tubdan o'zgaradi. Bu jarayon inson kapitali transformatsiyasini talab qiladi. Bu sharoitda infratuzilma va raqamli muhit zaruriyati tug'iladi, samarali inson kapitalini shakllantirish uchun raqamli infratuzilmani (onlayn ta'lim platformalari, elektron sertifikatlash, raqamli malakani baholash tizimlari) yaratish shart. Blokcheyn inson kapitali bilan bog'liq ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchligini ta'minlashda foydali vosita hisoblanadi (masalan: diplomlar, malaka guvohnomalari, ish tajribasi elektron ravishda blokcheyn orqali tasdiqlanishi). «Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali yuqori texnologik o'zgarishlarga moslashuvchan, raqamli ko'nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan kadrlar orqali shakllanadi. Shuning uchun ta'lim, qayta tayyorlash va raqamli infratuzilma inson kapitalini transformatsiyalashning asosiy ustuvor yo'nalishlaridir»⁵.

Iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyasi iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, Germaniyaning Potsdam amaliy fanlar universitetining Lammers boshchiligidagi olimlar jamoasining fikricha, yangi texnologik muhitda inson kapitali raqamli ko'nikmalarni tezda o'zlashtirishi shart. inson kapitaliga asosiy e'tiborni kuchaytirish va qiymatni differensiatsiyalash, xarajatlar samaradorligi, atrof-muhit barqarorligi, ishchilar xavfsizligi, ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi, bozor konsentratsiyasi va globallashtirish, qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirish kabilar mamlakatda raqamli transformatsiyaning drayverlari bo'lib xizmat qiladi⁶. Kepler universiteti tadqiqotchisi Kxin Xo fikriga ko'ra, inson resurslari samaradorligi raqamli texnologiyalar orqali orttiriladi, bugungi kunda inson kapitali raqamlashtirish jarayoniga jalb qilinishi va raqamli transformatsiyani

3 S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.

4 Abduraxmonova G.K., Rustamov D.J. "Inson kapitalinirakamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yunalishlari". Monografiya. — Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. — 127 b.

5 S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.

6 Lammers, T., Tomidei, L., & Regattieri, A. (2018). What Causes Companies to Transform Digitally? An Overview of Drivers for Australian Key Industries. 2018 Portland International Conference on Management of Engineering and Technology (PICMET).



o'z ichiga olishi kerak, chunki raqamli texnologiya inson kapitalini rivojlantirishda muhim yangilanishlarni kiritishi mumkin, masalan, inson tajribasi va ishtirokini oshirish, inson resurslarini optimallashtirish va hatto raqamlashtirish mutlaqo yangi modellarini yaratishga yordam beradi. Aks holda, mamlakatlar inson resurslari borasida qattiq raqobatga duch kelishi va zamonaviy bozorda omon qolishi uchun zaiflashishi mumkinligini qayd etgan bo'lsa⁷, Linz Joxannes Kepler universiteti tadqiqotchisi Larsson Viitaoja ta'kidlashicha raqamli modellar inson salohiyatini rivojlantirish va raqamli tafakkurni shakllantirishga yordam beradi. Inson kapitalini raqamli transformatsiyalash inson kapitali qiymatini yaratish va mutaxassislar tajribasini yaxshilash uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochadi. Uning so'nggi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda inson kapitali qiymatga yo'naltirilgan bo'lib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida kompaniyalar yangi rivojlangan inson kapitali uchun xizmatlarni taklif qilishlari, ish jarayonlarini avtomatlashtirishlari va yangi raqamli transformatsiyalangan inson kapitali modellarini ishlab chiqishlari mumkin⁸. Germaniyaning Osnabryuk universiteti olimi Liere Kirstenning fikriga ko'ra, raqamli transformatsiya faqat texnologik jihat emas, insonlar o'rtasidagi bilim almashinuvi va raqamli kompetensiyalar rivojlanishi bilan bog'liqdir. Agar inson kapitali raqamli ko'nikmalarga ega bo'lmasa va hamkorlikka tayyor bo'lmasa – raqamli islohotlar to'liq natija bermaydi⁹. Gebaesh Chernet boshliq Bandung texnologiya instituti olimlar inson kapitalini transformatsiya qilishda raqamli madaniyatni, ya'ni ta'lim tizimini hal qiluvchi omillar sifatida ta'kidlaydilar hamda inson kapitali transformatsiyasining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar qatorida ta'lim tizimi, raqamli madaniyat va innovatsion tafakkurni ko'rsatadilar¹⁰. Urbach Röglinger hamda Zakilar raqamli transformatsiya jarayonida tashkilotlarning inson resurslarini qayta tayyorlash, raqamli yetuklikni oshirish va raqamli ko'nikmalarni chuqurlashtirish zarurligini alohida ta'kidlashadi. Ular raqamli yetuklikni faqat texnik tayyorgarlik emas, balki muammo yechish, yangilikka ochiqlik va raqamli tadbirkorlik qobiliyatlari bilan ham bog'laydilar¹¹. Horlach va boshqalar esa AT tizimlarining ikkilamchi – an'anaviy va innovatsion – usullarda faoliyat yuritishi modelini ilgari surib, xodimlarning har ikki tizimda ham samarali ishlash qobiliyati inson kapitali uchun asosiy mezon ekanini ko'rsatadilar. Ularga ko'ra, "bimodal" AT tashkilotlar raqamli o'zgarishlarga moslashishda inson kapitaliga katta e'tibor qaratishi lozim¹².

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini raqamli transformatsiyalash uning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Inson kapitali o'zgaruvchan raqamli muhitga moslashuvchan bo'lishi, ya'ni raqamli etuklik, texnologik savodxonlik, innovatsion fikrlash, hamda doimiy o'qish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lillarga asoslangan xolda, ushbu takliflarni ilgari surish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz, mintaqada raqamli ta'lim markazlarini yaratish, ayniqsa qishloq hududlarida onlayn kurslar, raqamli savodxonlik seminarlari orqali kadrlar tayyorlashni ta'minlash.

Mehnat bozorida raqamli sertifikatlash tizimini joriy etish, bunda xodimlar raqamli kompetensiyalarni rasmiy e'tirof etuvchi sertifikatlarga ega bo'lishlari orqali yangi ish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Raqamli infratuzilmaga sarmoyalar jalb etish orqali, internet tezligi, kompyuter texnikalari bilan ta'minlash orqali inson kapitali resurslarini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin.

Ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya mavzusida alohida kurslar tashkil etish, bu orqali kelajak mutaxassislarining raqamli muhitga moslashish qobiliyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-6079-son Farmoni, //...lex.uz/docs/5030957..
2. Regional Innovation Centre UNDP Asia-Pacific: Follow 7 min read Feb 24, 2020
3. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.
4. Abduraxmonova G.K., Rustamov D.J. "Inson kapitalinirakamli iktisodiyot asosida rivojlantirish yunalishlari". Monografiya. — Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. — 127 b.

7 Khin Ho, "Digital transformation of Business Models in the bank sector: a multiple case study", Johannes Kepler University Linz, october 2020 y.

8 Larsson Viitaoja, 2017, Digital Transformation of Business Models in the banking sector: a multiple case study, Johannes Kepler university linz. Altenberger, Austria

9 Liere-Netheler, K., Vogelsang, K., Packmohr, S., & Hoppe, U. (2018). Towards a framework for digital transformation success in manufacturing. In: Proceedings of the 26th European Conference on Information Systems, Portsmouth, UK

10 Gebayew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). A Systematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI). doi:10.1109/icitsi.2018.8695912

11 Urbach & Röglinger, 2019; Zaki, 2019, Digitalization Cases - How Organizations Rethink Their Business for the Digital Age, Springer International Publishing, Cham, Switzerland ISBN: 978-3-319-95272-7.

12 Horlach, B., Drews, P., Schirmer, I. and T. Böhmman (2017). "Increasing the Agility of IT Delivery: Five Types of Bimodal IT Organization." In: Proceedings of the Hawaiian International Conference on System Sciences. Hawaii: USA.



5. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.
6. Lammers, T., Tomidei, L., & Regattieri, A. (2018). What Causes Companies to Transform Digitally? An Overview of Drivers for Australian Key Industries. 2018 Portland International Conference on Management of Engineering and Technology (PICMET).
7. Khin Ho, "Digital transformation of Business Models in the bank sector: amultiple case stady", Johannes Kepler University Linz, october 2020 y.
8. Larsson Viitaoja, 2017, Digital Transformation of Business Models in the banking sector: a multiple case study, Johannes kepler university linz. Altenberger, Austria
9. Liere-Netheler, K., Vogelsang, K., Packmohr, S., & Hoppe, U. (2018). Towards a frameworkfor digital transformation success in manufacturing. In: Proceedings of the 26thEuropean Conference on Information Systems, Portsmouth, UK
10. Gebayew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). A Systematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI). doi:10.1109/icitsi.2018.8695912
11. Urbach & Röglinger, 2019; Zaki, 2019, Digitalization Cases - How Organizations Rethink Their Business for the Digital Age, Springer International Publishing, Cham, Switzerland ISBN: 978-3-319-95272-7.
12. Horlach, B., Drews, P., Schirmer, I. and T. Böhmnn (2017). "Increasing the Agility of IT Delivery: Five Types of Bimodal IT Organization." In: Proceedings of the Hawaiian International Conference on System Sciences. Hawaii: USA.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>